

**KIMYO DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING INNOVATSION
FAOLLIGINI OSHIRISH VA MA’NAVIYATINI YUKSALTIRISHDA
AJDODLAR MEROSIDAN FOYDALANISH**

Raximova Gulnora, Matqurbonova Ilmira

Xorazm viloyati Yangibozor tumanidagi 12-umumiy o`rta ta`lim maktabi
kimyo fani o`qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu maqolada kimyo fani sirlarini umumta`lim maktablarida o`rgatish jarayonida buyuk ajdodlarimiz, allomalarimiz merosidan mantiqiy savollar va masalalar tarzida samarali foydalanish orqali o`quvchilarning innovatsion faolligini oshirish va ma`naviyatini oshirish yuzasidan qarashlar bayon etilgan.

Jamiyatning har tomonlama ravnaq topishi, taraqqiy etishi ta`limning rivojlanishiga va mazmunan takomillashib borishiga bog`liq. Globallashuv jarayonida innovatsion texnologiyalarning joriy etilayotgani ta`lim muassasalarida ta`lim sifatining oshishiga turtki bo`lmoqda. Har qanday texnologiya ta`limning yangi mazmunini shakllantiruvchi tamoyillarga asoslanadi. Fan-insoniyat faoliyatining sferasi, u bilimlarni yig`adi, tizimlashtiradi va umumlashiradi. Kimyo fanining maqsadlaridan biri kimyo olamining ibtidoiy jamoadan boshlab, bugungi kungacha bo`lgan tadrijiy rivojlanish jarayonini uzluksiz va uzviy rivojlanib borayotgan mantiqan yagona kimyoviy bilimlar tizimini shakllantirishdan iborat.

Bu vazifani bajarishda buyuk ajdodlarimiz ilmiy merosidan foydalanish yuqori samaradorlikka erishish uchun muhim qadam hisoblanadi. Zero, kimyo fani rivojida buyuk hissaga ega Abu Ali ibn Sino, Abu Rayxon Beruniy, Abu Bakr ar Roziy, Jobir ibn Xayyom kabi bir qator allomalarimiz tajribalari asosida yaratilgan fan kashfiyotlari haqida ma`lumotlar bilan tanishtirish orqali biz o`quvchilarimiz qalbida ular bilan faxrlanish, Vatanga muhabbat hissini rivojlantirish, shuningdek, ular ongiga milliy istiqlol g`oyalarini singdirishga hamda fanlararo bog`liqlikka erishamiz.

Fikrimning isboti sifatida kimyo darslarida foydalanish uchun qulay bo‘lgan, innovatsion faollikka yetaklovchi qiziqarli savollarni taklif qilaman. Ulardan —Aqliy hujum, —Tezkor savollarga tezkor javoblar, —Kimyo tarixida bir shingil so‘rovl kabi ta‘limiy o‘yinlarda, shuningdek, fanga tegishli viktorinalar, —Zakovatli bellashuvlari kabi tadbirlarda bimalol foydalanish mumkin.

“Tezkor savollarga tezkor javoblar”

Savol: Insoniyat taraqqiyotidagi tosh davri-insoniyat jamoa davri uchun qaysi modda birinchi kimyoviy laboratoriya vazifasini bajargan?

- A) Gulxan B) Tuproq C) Tosh D) Havo

Javob: gulxan

Savol: Qaysi sharq allomasi 1-bo‘lib, qo‘y ichagidan xirurgik operatsiyalarida keng qo‘llaniladigan ketgut tayyorlagan?

Javob: Abu Bakr Ar-Roziy

Savol: Hushini yo‘qotgan bemorni o‘ziga keltirish uchun hidlatiladigan novshadil spirti va bo‘yashda ishlatiladigan oq bo‘yoqni 1-bo‘lib kashf qilgan ajdodimiz kim?

Javob: Jobir ibn Xayyom

Mantiqiy savollar yordamida o‘quvchilarni kreativ fikrlashga, dunyoqarashini kengaytirishga erishamiz. Ular bilan tanishing.

1-mantiqiy test savoli: Olimlarning ilmiy izlanislari natijasida elementi yuqori temperaturada (100 million 0Cda) hosil bo‘lishi aniqlangan. Ma‘lumki, bizning sayyoramizda bunday temperaturani hosil qilib bo‘lmaydi. Xulosa qilinadiki, bu element Yer sayyorasida hosil bo‘lmagan. Bu qaysi elementligini ayting. A) mis B) vodorod C) geliy D) temir

Javob: Bu temir elementi. (Isbot tarzida meteoritlar tarkibining 94% ni aynan temir tashkil qilishi aytiladi.)

Yuqorida e‘tiboringizga havola etilgan mantiqiy savollardan foydalanish va ularning javoblarini kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan holda tushuntirib berish orqali o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishlarini va axborot bilan ishlash,

modda, kimyoviy jarayon hamda hodisalarni tushunish kabi kompetensiyalarining oshishiga, shuningdek, ularning ma’naviyatini yuksaltirishiga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Baqoyev A. — Kimyo tarixi - Toshkent. — O`qituvchi. 2015 yil 10-28 sahifalar.